

“XAMSA” DOSTONLARI VAZNINI O‘RGANISHDA TA’LIMIIY TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI

Umida Kamolova

BuxDPI mustaqil tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14968506>

Annotatsiya. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari turkiy tilda yozilgan muhim asar bo‘libgina qolmay, shakl va mazmun jihatidan mutanosib yaxlit asar hisoblanadi. Shuning barobarida ayni paytga qadar o‘z ahamiyatini, badiiy qimmatini yo‘qotmagan ma’naviy meros hamdir.

She’riyatda vazn, undan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish shoirdan yuksak mahoratni talab qiladi. Alisher Navoiy ana shunday benazir ijodkordir. Mazkur maqolada uning ijodiga murojaat qilinib, turli ta’limiy texnologiyalar asosida “Xamsa” dostonlari vaznini o‘rganish va samaradorlikka erishish xususida ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: aruz, chizma, doston, texnologiya, ohang, tahlil, talqin, tavsiya, bayt, shakl, mazmun, mohiyat.

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ ЗНАЧЕНИЯ ПОСЛАНИЯ «ХАМСА»

Аннотация. Произведение Алишера Навои «Хамса» – это не только важное произведение, написанное на тюркском языке, но и стройное целое произведение по форме и содержанию. В то же время это еще и духовное наследие, не потерявшее своего значения и художественной ценности.

Вес в поэзии, правильное и уместное его использование требуют от поэта высокого мастерства. Алишер Навои – такой уникальный художник. В данной статье, ссылаясь на его работу, на основе различных образовательных технологий изложены некоторые комментарии по изучению веса эпоса «Хамса» и достижению эффективности.

Ключевые слова: аруз, рисунок, эпос, технология, тон, анализ, интерпретация, рекомендация, строфа, форма, содержание, суть.

THE ROLE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN STUDYING THE IMPORTANCE OF THE "KHAMSA" EPISTLE

Abstract. Alisher Navoi's work "Khamisa" is not only an important work written in the Old Turkish language, but it is also a well-balanced work in terms of form and content. At the same time, it is also a spiritual heritage that has not lost its importance and artistic value.

Weight in poetry, its correct and appropriate use requires high skill from the poet. Alisher Navoi is such a unique artist. In this article, referring to his work, on the basis of various

educational technologies, some comments on learning the weight of "Khamsa" epics and achieving efficiency are stated.

Keywords: aruz, drawing, epic, technology, tone, analysis, interpretation, recommendation, stanza, form, content, essence.

Alisher Navoiyning "Xamsa" asari Sharq she'riyatining noyob adabiy durdonalari orasida alohida o'rin egallaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilariga Adabiyot darsida mazkur asarni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish tavsiya etilgan. Ushbu mavzuning mazmun-mohiyatini, asarning vazn tahlili orqali ifodali o'qishga o'rgatishda didaktik usul hamda ta'limiy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

"Bumerang" texnologiyasi talabiga ko'ra, dastavval sinf o'quvchilari kichik guruhlariga ajratiladi. "Xamsa" asari besh dostonidan tarkib topganini inobatga olib, har biri besh nafardan beshta guruh shakllantirilishi joiz. Undagi ishtirok etuvchilarning har qaysi 1, 2, 3, 4, 5-raqamli qatnashchi sifatida belgilanadi. Guruhlarni nomlashda dostonlar nomidan foydalanish maqsadga muvofiq:

1-guruh	2-guruh	3-guruh
"Hayrat ul-abror"	"Farhod va Shirin"	"Layli va Majnun"
4-guruh	5-guruh	
"Sab'ai sayyor"	"Saddi Iskandariy"	

Kichik guruhlar shakllantirilgach, o'quvchilar dars (mashg'ulot)ning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi. Ya'ni "Xamsa" tarkibidagi dostonlarning vaznini tahlil qilish, ifodali o'qish muhimligi uqtiriladi.

Keyingi o'rinda o'quvchilarga dostonlar tarkibidan baytlar taqdim qilinadi. Jumladan,

1. Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
2. Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir.
3. Kim ul kecha Qays zori bedil,
Kim bo'ldi qabila sori moyil.
4. Yetti kox ichra yetti farzona
Degali hikmatingdin afsona.
5. Agar qilmadi el himoyat sanga,
O'zungdin keraktur shikoyat sanga.

Navbatdagi jarayonda har qaysi guruhga topshiriq sifatida berilgan baytlar o'sha guruh a'zolari tomonidan yakka tartibda tahlil qilinadi. Masalan, 1-baytni "Hayrat ul-abror", 2-baytni

“Farhod va Shirin”, 3-baytni “Layli va Majnun”, 4-baytni “Sab’ai sayyor”, 5-baytni “Saddi Iskandariy” deb nomlangan guruh vakillari aruz nazariyasi talablariga binoan:

- baytlarni hijolarga ajratishi;
- taqte’sini hosil qilishi;
- afoyl-u tafoyilni topishlari zarur.

Topshiriq bajarilgach, 1-raqamli ishtirokchilar bir guruhda, 2-raqamli o’quvchilar yana bir guruhda, shu tariqa har bir guruh a’zolaridan yangi guruh tashkil etiladi. Ularning har biri guruh ichida navbati bilan tahlil qilgan matnlari bilan axborot almashadilar, ya’ni bir-birlariga so’zlab beradilar, tushuntiradilar. Bunda har bir bosqichning vaqt mezoni o’qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Shundan so’ng yangi guruh a’zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar.

Avvalgidek shartli ravishda shakllantirilgan “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” guruhlariga qayta tiklanadi. O’quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada tahlil qilingani, o’zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o’qituvchi o’quvchilarga tahlillarni ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi topshiriladi. Natijada quyidagi ko’rinish hosil bo’lishi muhim:

1. Bosh-ni fi-do | ay-la a-to | qo-shi-g’a,

Jis-m(i)-ni qil | sad-qa a-no | bo-shi-g’a.

– V V – | – V V – | – V –

muftailun | muftailun | foilun

Sari’yi musaddasi matviyi makshuf

2. Hu-nar-ni as | -ra-bon net-gum | -di-r o-xir,

O-lib tuf-roq | -qa-mu ket-gum | -di-r o-xir.

V – – – | V – – – | V – –

mafoiylun | mafoiylun | fauvlun

Hazaji musaddasi mahzuf

3. Kim ul ke | -cha Qay-s(i) zo | -ri be-dil,

Kim bo’l-di | qa – bi - la so - | ri mo-yil.

– – V | V – V – | V – –

maf’uvlu | mafoilun | fauvlun

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf

4. Yet-ti ko-x ich | -ra yet - ti far | -zo-na

De-ga-li hik | -ma-ting-di-n af- | so-na.

foilotun | V - V - | - -

Xafifi musaddasi maxbuni maqtu'

5. A - gar qil- | ma-di el | hi-mo-yat | sa-nga,

O'-zung-din | ke-rak-tur | shi-ko-yat | sa-nga.

V - - | V - - | V - - | V -

mafoiylun | mafoiylun | mafoiylun | faal

Mutaqoribi musammani mahzuf

Yana bir muhim didaktik usullardan biri "Konseptual jadval" metodidir. Uni quyidagicha shakllantirish mumkin:

	"Hayrat ul-abror"	"Farhod va Shirin"	"Layli va Majnun"	"Sab'ai sayyor"	"Saddi Iskandariy"
Vazni					
Afoyili					
Taqte' belgisi					

O'quvchilarga jadval ko'rinishidagi ushbu topshiriq taqdim qilingach, ularga to'ldirish vazifasi topshiriladi. Uning to'liq holatida quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi:

	"Hayrat ul-abror"	"Farhod va Shirin"	"Layli va Majnun"	"Sab'ai sayyor"	"Saddi Iskandariy"
Vazni	Sariyi musaddasi matviyi makshuf	Hazaji musaddasi mahzuf	Hazaji musaddasi axrabi maqbuza mahzuf	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf	Mutaqoribi musammani mahzuf
Afoyili	Muftailun muftailun foilun	Mafoiylun mafoiylun fauvlun	maf'uvlu mafoilun fauvlun	foilotun mafoilun failun	Fauvlun fauvlun fauvlun faal
Taqte' belgisi	- V V - - V V - - V -	V - - - V - - - V - -	- - V V - V - V - -	- V - - V - V - V V -	V - - V - - V - - V -

“Demak, Alisher Navoiyning “Xamsa”siga kirgan dostonlardan “Hayrat ul-abror”ning vazni sari’ bahridan, “Laylo-vu Majnun”, Farhod-u Shirin”ning vaznlari hazaj bahridan, “Sab’ayi sayyora” vazni hafif bahridan bo’lib, “Saddi Iskandariy”niki esa muta’qorib bahridandir.

Sari’ bahri pand-u nasihat ohangiga ega bo’lgan bahr bo’lgani uchun Alisher Navoiy o’z “Xamsa”sining o’gitdan iborat birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”ni sari’i musaddasi matviyi mavquf va makshuf vaznida yozgan. “Laylo-vu Majnun”, Farhod-u Shirin”ning vaznlari ham she’rga ishqiy kechinmalarga mos ritm bag’ishlaydi. “Sab’ayi sayyora” qolgan dostonlarga nisbatan yengil ruhda dostonidir. Shu sababdan uning vazni ham asarga yengillik ohangi beruvchi hafif bahridandir. Muta’qorib bahri jangovarlik ohangiga ega bo’lganligi uchun “Saddi Iskandariy” dostoni shu bahrga oid vaznda yozilgan” [4, 123].

Xulosa o’rinda aytish joizki, “Navoiy vazni asar mazmuniga, bayt ma’nosiga, tasvir va fikr izchilligiga, sira xalaqit bermaydi, balki yuqorida aytib o’tilgan sabablarga ko’ra mazmunni kuchaytirishga, asarda ifoda qilinayotgan fikrning ta’sirchanligini oshirishga yordamlashuvchi vositadir”[4,123]. Mazkur jihatni o’quvchilar ong-u shuuriga singirish, “Xamsa”dagi dostonlar vaznini to’g’ri va xatosiz tahlil qilish, shuningdek, ifodali o’qishga o’rgatish jarayonida “Bumerang” texnologiyasi va “Konseptual jadval” metodining tanlanishi dars samaradorligining muhim omillaridan biridir.

REFERENCES

1. Бобур. Мухтасар. Тошкент.: “Фан”, 1971. 413 б.
2. Навоий А. Мезон ул-авзон // Навоий А. Асарлар. 15 томлик. 14-том. Тошкент.: Гафур Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967. Б-133-182
3. Олимов М. Рисолаи аруз. Тошкент.: “Ёзувчи”, 2002. Б-104
4. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. Б – 216
5. То’xliyev B. Adabiyot. 11-sinf: darslik-majmua. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. B – 200
6. X A Xайитов Гафур Ғуломнинг халқ латифаларидан фойдаланиш маҳорати. Academic research in educational sciences 2(3), 679-687.
7. H H Akhmadovich Khoja nasriddin afandi as people’s hero . AKADEMICA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11(2).1562.
8. T. Khoja o’g’li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.

9. K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES.Conferencea, 66-75..
10. K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS.Conferencea, 54-58.
11. K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN’S READING E Conferencea,28-33.
12. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
13. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG’ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
14. Ahmadov A. AFG ‘ON MA’RIFATPARVARI MAHMUD TARZIY VA AFG ‘ON MATBUOTI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 783-786.
15. Ahmadov A. XIX ASR OXIRI–XX ASR BOSHLARIDA AFG’ONISTON MAVZUSINI YORITISHDA SKARABEY TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 894-899.
16. Ahmadov A. SHARQSHUNOS OLIM DN LOGOFET TALQINIDA BUXORO AMIRLIGIDA MAORIF VA DINIY SIYOSAT MASALALARI //" ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. – 2024. – Т. 16. – №. 8.
17. Шарипова Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЦИЗМОВ В РАЗНЫХ ЖАНРАХ СМИ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – C. 57-59.